

NIG'MATULLAYEV Ibrohim

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
"Dinshunoslik va jahon dinlarini qiyosiy o'rganish
UNESCO" kafedrasi tayanch doktranti*

O'ZBEKISTONDA SHIA JAMOALARI AN'ANALARINI O'RGANISHNING ILMIY ASOSLARI

НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ ТРАДИЦИЙ ШИИТСКИХ ОБЩИН В УЗБЕКИСТАНЕ

SCIENTIFIC BASIS OF STUDYING TRADITIONS OF SHIA COMMUNITIES IN UZBEKISTAN

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda shia jamoalari an'analari o'rganishning ilmiy asoslari haqidagi ma'lumotlar yoritib berilgan. Xususan, xorijiy va mahalliy olimlarning O'zbekistondagi shia jamoalari an'analari, ularning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha olib borgan tadqiqotlari natijalari tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston hududiga shia jamoalarining kirib kelish tarixi, ularning nomlari, diniy an'ana va marosimlari, mintaqaviy xususiyatlari tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: shia, shia jamoalari, eroniy, ijtimoiy-madaniy, an'ana, marosim, oqim, bayram.

Аннотация: В статье представлена информация о научной основе изучения традиций шиитских общин Узбекистана. В частности, были проанализированы результаты исследований, проведенных зарубежными и отечественными учеными о традициях шиитских общин в Узбекистане и их специфических особенностях. Также исследуются история проникновения шиитских общин на территорию Узбекистана, их названия, религиозные традиции и обряды, региональные особенности.

Ключевые слова: шииты, шиитские общины, иранцы, социокультурные, традиции, обряды, течения, праздники.

Annotation: The article provides information about scientific basis of studying the traditions of Shia communities in Uzbekistan. Together with this,

the results of the research conducted by foreign and local scientists on the traditions of Shia communities in Uzbekistan and their specific characteristics were analyzed. Furthermore, the history of Shia communities entering to the territory of Uzbekistan, their names, religious traditions and customs and regional features are discussed.

Key words: shia, shia communities, iranian, socio-cultural, tradition, custom, sect, holiday.

KIRISH

Jahonda sodir bo'layotgan voqealar orasida islom dini doirasida paydo bo'lgan turli yo'nalish va mazhablarning o'zaro muloqotini yo'lga qo'yish millatlararo tinchlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Islomdagi yo'nalishlardan biri bo'lgan shialikning kelib chiqishi, shakllanishi, o'ziga xos xususiyatlari o'rganish sunniy va shia jamoalari o'rtasidagi tushunmovchiliklarni bartaraf etish dolzarb ahamiyatga ega.

Dunyodagi bir qator ilmiy tadqiqot muassasalari tomonidan shia jamoalari tarixini maxsus o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, dunyoning turli hududlarida istiqomat qilib kelayotgan shia jamoalari bir qancha asrlar davomida joylashgan mintaqalarining siyosiy, ijtimoiy-madaniy hayotida o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, ularning hayot tarzi, faoliyat uslubi, xususan, sunniylar bilan do'stona munosabatlari tadqiq qilingan. Ammo, O'zbekiston sunniy va shialari o'rtasidagi munosabatlar tarixi va hozirgi kundagi ahamiyati maxsus tadqiq etilmagani obyektiv yondashuv asosida alohida ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda yashayotgan shia jamoalari aholining 1.3 foizini tashkil qiladi [1].

Islom dini jahon dinlari ichida eng yosh din hisoblanib, e'tiqod qiluvchilari soni jihatdan xristianlikdan so'ng ikkinchi o'rinda turadi. Islom dinida ikki asosiy yo'nalish mavjud bo'lib, ulardan biri sunniylik, ikkinchisi esa shialik (arabcha — guruh, tarafdorlar) hisoblanadi. Shialik o'zining tarqalishi va tarafdorlarining miqdori jihatidan sunniylikdan keyingi o'rinda turadi. Shialik VII asr o'rtalarida islom jamoasi ichida oliy hokimiyat masalasida paydo bo'lgan ixtilof natijasida vujudga kelgan bo'lib, VII asr oxirlariga kelib Iroq va Eronda

keng tarqalgan va islomdagi mustaqil yo'nalishga aylangan va keyinchalik boshqa hududlarda ham shia jamoalari shakllangan [2].

O'zbekistonda shia jamoalari to'g'risidagi ilk tarixiy ma'lumotlar Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"[3] ("Al-osor al-boqiya an al-qurun al-holiya") asarida, shuningdek, XVIII-XIX asr Eron va Movarounnahr diniy va siyosiy tarixini o'rganishga qaratilgan Muhammadyusuf Munshiyning "Tarixi Muqimxoniy", Muhammad Kozim Marviyning "Tarixi Alamarayi Nodiriy", "Muntahabut-tavorix", Muhammadhakim Ma'sumxon, Ahmad Donishning "Tarixi amironi mang'itiya" asarlarida, shuningdek, ingliz va rus sayohatchilarining asarlarida O'zbekiston hududida yashayotgan shia jamoalari to'g'risidagi tarixiy ma'lumotlar uchraydi [4:252].

ASOSIY QISM

Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" ("Al-osor al-boqiya an al-qurun al-holiya") asarida O'zbekiston hududidagi shialik mazhabi to'g'risidagi tarixiy ma'lumotlar uchraydi. Abu Rayhon Beruniy saroyda yashagan davrlarida o'zini shia mazhabiga yon bosganday qilib ko'rsatgan, ammo "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida shialarni nodonlar deb atagan [3:40]. Olim dinda mo'tadillikni yoqlagan va barcha mazhablarga nisbatan bag'rikenglik bilan qarash tarafdori bo'lgan. "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" podshohlar va mashhur shaxslar tarixini yorituvchi va o'sha davrning madaniyatini aks ettiruvchi tarixiy-etnografik asar bo'lib, u islomgacha bo'lgan (Xorazmda) butun bir davrni ochish imkoniyatini beradi. Mazkur asar Yevropada "Xronologiya" nomi bilan mashhur hisoblanadi. Abu Rayhon Beruniy bu asarini Jurjonda 27 yoshida, ya'ni 1000-yili arab tilida yozib tugallagan. Buyuk allomaning bu asarida Xorazm, Movarounnahr va O'rta Osiyoning boshqa mintaqalarda yashagan xalqlar, xususan, shialar haqida ham muhim tarixiy-etnografik ma'lumotlar bayon etilgan [5:213].

Rus tadqiqotchilaridan I.A.Bunin nomidagi Yeletskiy davlat universiteti (Rossiya) dotsenti,

tarix fanlari nomzodi V.P.Litvinovning "Turkistondagi shia musulmonlari ziyoratining davlat tomonidan tartibga solinishi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)" nomli maqolasida Turkistondagi shia musulmonlarining diniy ziyoratlarini davlat tomonidan tartibga solish muammolari ko'rib chiqilgan. Shia musulmonlarining asosiy "ziyosat" markazlari haqidagi ma'lumotlar berilgan [6:36].

Shuningdek, V.P.Litvinovning "Turkistondagi musulmon-shialarning sig'inish obyektlari" nomli maqolasida Markaziy Osiyo, xususan, Turkistondagi musulmon-shialarning asosiy diniy ziyorat markazlari tatqiq etilgan [7:23].

Turkiya Oqdengiz universiteti (Akdeniz Üniversitesi) Adabiyot fakulteti tarix bo'limi tadqiqotchisi Leyla Dervishning "O'zbekiston eroniylari tarixiga qisqa bir nazar" nomli maqolasida O'zbekistonda yashayotgan eroniylar va ularning tarixi yoritib berilgan. Tadqiqotchi Leyla Dervishning fikriga ko'ra, O'zbekistonda yashayotgan eroniylar tarixi o'rta asrlarga borib taqaladi va ular mintaqaga asir va qul sifatida olib kelingan. O'sha paytda eronliklar Buxoro xonligida muhim vazifalarni o'z zimmasiga olganlar. Ularning aksariyati mahalliy aholi bilan qorishib ketib, sunniylikni qabul qilgan. Eronliklar, asosan, Buxoro va Samarqandda istiqomat qiladilar. Ularning soni oz bo'lsa-da, O'zbekistonning boshqa mintaq va shaharlarida ham eronliklar yashaydi. O'zbekiston eroniylari eronlik vatandoshlaridan farq qilib, ko'plab mahalliy xususiyatlarni o'zlarida namoyon qilganlar [8:13].

O'zbekistonning asosan Buxoro va Samarqand shaharlarida yashovchi shialar, o'zlarini eroniy deb ataydilar. Bu eronliklar o'zlarining lingvistik xususiyatlariga ko'ra forsiylar hisoblanib, ular ikkiga: tojikcha va turkcha (o'g'uz) tillarga bo'linadi. Buxoroda fors tilida so'zlashuvchi eronliklar istiqomat qiladi, turkiyzabon eronliklar esa Samarqandda yashaydi. Buxoroda yashovchi eronliklarni mahalliy aholi forsiy deb ataydi. Bulardan tashqari, mintaqadagi shialarga o'zlari kelib chiqqan shahar yoki mintaqaga qarab marviy, xurosoniy, mashhadiy, sabzavoriy, pirsion deb ham ataladilar.

Mintaqada panjiy atamasi ham shia jamoalarini anglatish uchun ishlatilgan. Ma'lumki,

“panch” forsiy tilida besh ma’noni anglatadi va shia mazhabidagi “Ahl al-Bayt” (Muhammad (s.a.v), Ali, Fatima, Hasan va Husayn)ning ramzi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, eronliklar ba’zan o’zlarini panjiy deb ham ataydilar. Eronliklar Buxoro va Samarqanddan tashqari O’zbekistonning ko’plab mintaqalarida kichik guruhlarda mavjud.

Tadqiqotchi Leyla Dervish tadqiqotlariga ko’ra, O’zbekiston hududiga Amir Temur o’zining G’arbga uyushtirgan safarida Erondan Samarqandga yuzlab san’atkorlar, hunarmandlar va hunarmandlarni olib kelgan.

1740-1742-yillarda Nodirshohning Turkistonga qilgan safarlari davomida ba’zi eronliklar Buxoro atrofida, ya’ni shahar devorlaridan tashqariga o’rnashib olgan. Bulardan eng yiriklari Buxoroning janubi-g’arbidagi Afshar va Qom Rabot mahallalari hisoblanadi. Afshar mahallasi Shayx Jalol darvozasi yaqinida joylashgan[8:14].

Rus tadqiqotchisi O.Suxarevaning bergan ma’lumotlariga ko’ra, eronliklar Ubaydullaxon (1533-1539) davrida, ya’ni XVI asr boshlarida Buxoroga asir sifatida keltirilgan. Bu holat keyingi davrlarda ham davom etgan [9:154].

Tadqiqotchi A.Djumayevning “Buxoro eroniylarining Ashuro marosimi —ijtimoiy-madaniy va badiiy hodisa sifatida” nomli maqolasida 2004-yildan boshlab to’plangan Buxoro va uning atrofida dala materiallariga asoslanib, turli yozma va boshqa manbalar asosida Ashuro marosimi va uning o’ziga xos xususiyatlari o’rganilgan [10:43].

A.Djumayevning “Buxoro eroniylarining Ashuro an’anasi: manbalar va tarixiy-madaniy kontekst” nomli maqolasida O’rta Osiyo shia (eroniy) jamoalarining diniy hayoti, Majlis, Shahsey-vahsey, Ashuro, Husaynixoniy, Shomi g’aribon kabi turli an’ana va marosimlari xususidagi ma’lumotlarni o’z ichiga olgan [11:114]. Hozirgi vaqtda ulardan faqat bir nechta mavjud hisoblanadi.

O’zbekistonlik tadqiqotchilardan Sh.Toxtiyevning “Markaziy Osiyoda shia jamoalarining shakllanishi va o’ziga xos xususiyatlari” nomli tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasida islom tarixida shialik yo’nalishining diniy-siyosiy harakat sifatida

vujudga kelishi, shialikda yuzaga kelgan yo’nalish, oqim va firqalar hamda ularning diniy qarashlari, XVI asrda Xuroson va Movarounnahr sunniy va shia davlatlari o’rtasidagi munosabatlar, XX-XXI asr boshlarida Markaziy Osiyo shia jamoalarining etnik guruh sifatida shakllanishi va ijtimoiy hayoti, O’zbekiston shia jamoalarining muqaddas joylari va urf-odatlar haqidagi ma’lumotlar berilgan [12:2].

Shuningdek, tadqiqotchi Sh.Toxtiyevning “O’rta osiyo shialarining kelib chiqishi va ularning o’ziga xos xususiyatlari” nomli maqolasida O’rta Osiyo “eroniy”lari tarixi, madaniyati va dinining qisqacha tavsifiga bag’ishlangan. Shuningdek, eronliklarning O’rta Osiyoga kelib qolishi, diniy an’analarining o’ziga xos jihatlari haqida ham ayrim tarixiy ma’lumotlar keltirilgan [13:99].

Sh.Toxtiyevning “Samarqand va Buxoro eroniylari qisqacha tarixi” nomli maqolasida Movarounnahr “eroniylari”ning tarixi, madaniyati va dini haqida ma’lumot berilgan. Maqolada, shuningdek, eronliklarning Movarounnahrda ko’chirilishi, ularning konfessional xususiyatlari va diniy marosimlari haqidagi ba’zi tarixiy ma’lumotlar ko’rib chiqilgan [14:124].

XULOSA

Jahonda sodir bo’layotgan voqealar orasida islom dini doirasida paydo bo’lgan turli yo’nalish va mazhablarning o’zaro muloqotini yo’lga qo’yish millatlararo tinchlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Islomdagi yo’nalishlardan biri bo’lgan shialikning kelib chiqishi, shakllanishi, o’ziga xos xususiyatlari o’rganish sunniy va shia jamoalari o’rtasidagi tushunmovchiliklarni bartaraf etish dolzarb ahamiyatga ega.

So’nggi yillarda O’zbekistonda dinning ahamiyati, uning qadriyatlariga alohida e’tibor qaratilib, turli diniy konfessiyalarning rasmiy faoliyati uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi. Mamlakatimizda olib borilayotgan ko’p millat va konfessiyaviylik siyosati ilmiy asoslarga ega bo’lishi davr taqozosi hisoblanib, o’zaro do’stlik va hamjihatlikni yanada rivojlantirish, qaysi millat, din va e’tiqodga mansubligidan qat’i nazar, barcha fuqarolar uchun teng huquqiylikni ta’minlash

asosiy masala sanaladi. Shundan kelib chiqib, O'zbekistonda yashayotgan shia jamoalari tarixi va madaniyatini o'rganish ahamiyatli hisoblanadi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston>
2. [Шиалик ҳақида — У ким, бу нима — QOMUS.INFO](#)
3. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. -TA. 1 t. - T.: Fan, 1968. - B. 40.
4. Bo'riyev O. Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050-yilligiga // Markaziy Osiyo tarixi va madaniyati. Konferensiya materiallari. – Toshkent, 2023, - B. 213.
5. Муллоджонов С.К. Ирано-среднеазиатские отношения в XVIII-XIX века: влияние религиозного фактора // Вестник Педагогического университета. 2019. №5 (82). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/irano-sredneaziatskie-otnosheniya-v-xviii-xix-veka-vliyanie-religioznogo-faktora> (дата обращения: 17.12.2023). – С. 252.
6. Литвинов В.П. Государственное регулирование паломничества мусульман-шиитов Туркестана (конец XIX-начало XX в.) // Вестник Кыргызско-Российского Славянского университета. – 2014. – Т. 14. – №. 3. – С. 36-42.
7. Литвинов В.П. Объекты поклонения мусульман-шиитов Туркестана // Вестник КазНУ. Серия Востоковедения. – 2016. – Т. 67. – №. 1.
8. Derviş L. Özbekistan iranilerinin tarihine kısa bir bakış // Selçuk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Dergisi. – 2021. – №. 51. – С. 11-27.
9. Suhareva, O. (1966). Buhara XIX- načalo XX v. (poznofeodalniy gorod i ego naselenie), Moskva: Nauka. – С. 154.
10. Джумаев А. Традиция ашуро у иранцев Бухары как социокультурный и художественный феномен // Мир ислама: история, общество, культура. Мир ислама: история, общество, культура: Тезисы докладов II Международной научной конференции. 28–30 октября 2010 г.). – С. 43.
11. Джумаев А.Б. Традиция ашуро у иранцев Бухары: источники и историко-культурный контекст // PaxIslamica. – 2010. – Т. 2. – С. 114-136.
12. Toxtiyev Sh.R. Markaziy Osiyoda shia jamoalarining shakllanishi va o'ziga xos xususiyatlari: Tar. fan. fals. dok. (PhD) ... dis. – Toshkent, 2021. – 2 b.
13. Тохтиев Ш. Происхождение среднеазиатских шиитов и их характеристика // Восточный факел. – 2017. – Т. 3. – №. 3-4. – С. 99-104.
14. Тохтиев Ш. Р. Краткая история самаркандских и бухарских «Ирани» // Вестник Челябинского государственного университета. – 2012. – №. 33 (287). – С. 124-129.